

TRANSPORT-LOGISTIKA SOHASIDA HAMKORLIK: “O’RTA KORIDOR” LOYIHASI VA UNING MINTAQAVIY AHAMIYATI

R. Kadirova

mustaqil tadqiqodchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: “O‘rta koridor” loyihasi Osiyo va Yevropa o‘rtasida yangi transport va logistika yo‘nalishini yaratish bo‘yicha muhim tashabbusdir. Ushbu maqolada transport-logistika sohasidagi hamkorlik nuqtai nazaridan O‘rta koridor infratuzilmasi, uning mintaqaviy ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Ikki xil metodologiya – ikkilamchi ma’lumotlarni tahlil qilish va amaliy misollar asosida o‘rganilgan ushbu loyiha, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalari o‘rtasida savdo va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qanchalik hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. Natijalar, O‘rta koridor orqali yuk tashish vaqtining qisqarishi, tranzit imkoniyatlarining oshishi va mintaqaviy hamkorlikning chuqurlashishi aniqlangan. Tadqiqot yakunida loyiha istiqbollari va unga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘rta koridor, transport-logistika, mintaqaviy hamkorlik, Yevroosiyo savdosi, infratuzilma, tranzit yo‘li, iqtisodiy integratsiya.

Abstract: The "Middle Corridor" project is a significant initiative aimed at establishing a new transport and logistics route between Asia and Europe. This article analyzes the infrastructure of the Middle Corridor, its regional significance, and economic efficiency from the perspective of transport-logistics cooperation. Using two methodologies—secondary data analysis and case studies—the study demonstrates how the project contributes to enhancing trade and economic integration between Central Asia and the Caucasus regions. The results reveal reduced transit time, increased transit capacity, and deepened regional cooperation through the Middle Corridor. The research concludes with prospects and recommendations for the project.

Keywords: Middle Corridor, transport-logistics, regional cooperation, Eurasian trade, infrastructure, transit route, economic integration.

Аннотация: Проект «Средний коридор» является важной инициативой по созданию нового транспортно-логистического маршрута между Азией и Европой. В статье анализируется инфраструктура Среднего коридора, его региональное значение и экономическая эффективность с точки зрения транспортно-логистического сотрудничества. Используя две методологии — анализ вторичных данных и изучение практических примеров — исследование показывает, насколько проект способствует развитию торговли и экономической интеграции между регионами Центральной Азии и Кавказа. Результаты выявили сокращение времени транспортировки, увеличение транзитных возможностей и углубление регионального сотрудничества через Средний коридор. В заключении представлены перспективы и рекомендации по проекту.

Ключевые слова: Средний коридор, транспортная логистика, региональное сотрудничество, евразийская торговля, инфраструктура, транзитный маршрут, экономическая интеграция.

Kirish. So‘nggi yillarda global savdo va ta‘minot zanjirlari tobora murakkablashib, ulardagi samaradorlik va tezlikning ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro bozorlar o‘rtasidagi aloqalar kengayishi va transport-logistika sohasidagi innovatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi savdo hajmi keskin oshgani sababli, ushbu mintaqalar o‘rtasida samarali, ishonchli va tezkor transport yo‘llarining mavjudligi strategik muhimlik kasb etmoqda. An‘anaviy transport yo‘llari, xususan, Rossiya va Eron orqali o‘tadigan yo‘llar, so‘nggi yillarda siyosiy va iqtisodiy noaniqliklar, shuningdek, sanksiyalar tufayli xavf ostiga tushmoqda. Bu esa yangi muqobil transport yo‘llarini qidirishga sabab bo‘lmoqda.

“O‘rta koridor” loyihasi — Trans-Kaspiy Xalqaro Transport Yo‘li (TITR) — aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, Xitoydan Yevropaga yangi va muqobil transport yo‘lini tashkil etmoqda. Ushbu yo‘l Qozog‘iston, Ozarbayjon va Gruziya orqali o‘tib, Kaspiy dengizini kesib, an‘anaviy yo‘llardan farqli o‘laroq, Rossiya va Eron hududlarini aylanib o‘tadi. Bu yo‘l nafaqat tranzit vaqtini qisqartiradi, balki siyosiy xavfsizlikni oshiradi, savdo hajmini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi (World Bank, 2020).

“O‘rta koridor” nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, balki u mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur loyiha orqali transport va logistika sohasida davlatlar o‘rtasida yanada yaqinlashuv va ishonch

mustahkamlanadi, yangi infratuzilma loyihalari amalga oshiriladi, va bojxona hamda transport tartiblari uyg'unlashtiriladi. Shu bois, O'rta koridor mintaqaviy iqtisodiy o'sish, savdo hajmining oshishi va global transport tarmoqlarida o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim vositaga aylanmoqda.

Ushbu maqola doirasida O'rta koridor loyihasi doirasida transport-logistika sohasida mintaqaviy hamkorlik qanday amalga oshayotgani, uning iqtisodiy va savdo taraqqiyotga ta'siri, shuningdek, loyiha oldidagi muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida quyidagi asosiy savollarga javob berish maqsad qilingan:

O'rta koridor qanday qilib mintaqaviy transport-logistika hamkorligini rivojlantirmoqda?

Loyiha mintaqaviy iqtisodiyot va geosiyosiy muhitga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Koridor oldida qanday muammolar va imkoniyatlar mavjud?

Ushbu savollarga javob berish orqali maqola O'rta koridorning mintaqaviy va xalqaro savdo-sotiqda tutgan o'rni va uning rivojlanish istiqbollari yoritishga harakat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot sifat metodologiyasiga asoslangan bo'lib, mavzuga oid keng qamrovli rasmiy va ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda rasmiy hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlar tomonidan nashr etilgan materiallar, shuningdek, mavzuga oid ilmiy maqolalar va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) va boshqa xalqaro hamkorlik platformalari tomonidan taqdim etilgan so'nggi ma'lumotlar asosiy ma'lumotlar manbai sifatida qabul qilindi. Bu manbalar orqali O'rta koridor loyihasining iqtisodiy samaradorligi, tranzit hajmi, vaqt va xarajatlar bo'yicha ko'rsatkichlari batafsil tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda esa, O'rta koridor doirasida amalga oshirilayotgan amaliy loyihalar, bojxona tartib-qoidalari, transport va logistika sohasidagi davlatlararo kelishuvlar chuqur o'rganildi. Bu orqali loyihaning har bir segmentida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar va muammolar aniqlangan, shuningdek, ishtirokchi davlatlar o'rtasida transport tizimining uyg'unlashuvi darajasi baholandi. Shuningdek, tadqiqotda yo'nalishlar o'rtasidagi raqobatbardoshlik, tranzit vaqti, yuk tashish narxlari kabi parametrlar solishtirildi. An'anaviy transport yo'llari bilan solishtirganda, O'rta koridorning afzalliklari va kamchiliklari haqida batafsil tahliliy

xulosalar chiqarildi. Tadqiqot jarayonida mavjud statistik ma'lumotlar grafiklar, jadvallar va xaritalar orqali tasvirlandi, bu esa mavzuni yanada yoritishga yordam berdi. Metodologiya doirasida qo'shimcha sifatida ekspert intervyulari va transport sohasidagi mutaxassislarning fikrlari ham inobatga olindi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi. Ushbu kompleks yondashuv orqali O'rta koridor loyihasining mintaqaviy transport-logistika hamkorligidagi o'rni va ahamiyati to'liq va har tomonlama o'rganildi.

Natijalar.

“O'rta koridor” loyihasi asosida tashkil etilgan transport yo'li bir nechta mamlakat hududidan o'tib, Xitoydan Yevropaga yuk tashishni amalga oshiradi. Ushbu yo'l Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya va Turkiya davlatlari orqali o'tib, temir yo'l, dengiz portlari hamda avtomobil yo'llarini o'z ichiga oladi (Asian Development Bank, 2021). Ayniqsa, Qozog'istonning Aktau portidan Ozarbayjondagi Boku portigacha bo'lgan Kaspiy dengizi orqali faol ishlayotgan ferry liniyasi tranzit yuklarni samarali tashishga imkon beradi. Ferry orqali yuklar Kaspiy dengizini kesib o'tadi va Ozarbayjon hududiga yetkaziladi. Bundan so'ng, yuklar Gruziyaning strategik portlari — Poti va Batumi orqali dengiz transportiga o'tkazilib, Turkiya orqali Yevropa qit'asiga yetkaziladi. Yuk tashish vaqti an'anaviy dengiz yo'llari bilan taqqoslaganda sezilarli darajada qisqargan — taxminan 15-20 kun atrofida, bu esa 30-40 kunlik an'anaviy yo'llardan tezroq hisoblanadi (World Bank, 2020). Shu bilan birga, so'nggi yillarda portlarda yuklarni qayta ishlash quvvatlari kengaytirilib, yangi texnologiyalar joriy etilgan. Bojxona tartiblarining soddalashtirilishi va integratsiyasi yuklarni tez va samarali o'tishini ta'minlaydi, tranzit jarayonidagi kechikishlar sezilarli darajada kamaygan.

O'rta koridor mamlakatlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida bir qator xalqaro kelishuvlar imzolangan. Ayniqsa, O'rta koridor xalqaro transport yo'li (TITR) doirasidagi shartnomalar bojxona tartiblarini uyg'unlashtirish, transport xavfsizligi va standartlarini birlashtirishga qaratilgan (Eurasian Economic Commission, 2022). Bu esa mamlakatlararo tranzitni soddalashtiradi va jarayonlarni tezlashtiradi. Moliyalashtirishda esa jamoat-xususiy sheriklik (PPP) modelining roli katta. PPP orqali koridor infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish uchun investitsiyalar jalb qilinmoqda. Shuningdek, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO), Ipak Yo'li tashabbusi kabi mintaqaviy platformalar O'rta koridor loyihalariga

qo'shimcha moliyaviy va siyosiy yordam ko'rsatmoqda. Bu esa loyihaning barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

O'rta koridor orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada o'smoqda. Bu esa Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarining iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda (Qozog'iston Transport Vazirligi, 2023). Yangi savdo yo'nalishlarining ochilishi va tranzit imkoniyatlarining kengayishi natijasida eksport hajmi ko'paymoqda. Savdo tarmoqlarining diversifikatsiyalashuvi mintaqaning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirib, barqaror iqtisodiy o'sishga turtki bermoqda. Geosiyosiy nuqtai nazardan, O'rta koridor Turkiyaning mintaqaviy tranzitdagi pozitsiyasini mustahkamlab, an'anaviy Rossiya va Eron yo'llariga bo'lgan qaramlikni kamaytirmoqda (Trenin, 2021). Bu esa mintaqada siyosiy barqarorlikni kuchaytirishga, shuningdek, yangi hamkorlik platformalarining shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, loyiha nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, loyiha yuzaga kelayotgan muammolardan ham holi emas. Infratuzilmaning ba'zi joylarida eskirgan texnika va qurilmalar mavjudligi, bojxonadagi kechikishlar, shuningdek, siyosiy beqarorlik va mintaqaviy nizolar yuk tashishni murakkablashtiradi (ADB, 2021). Transport standartlarining davlatlar o'rtasida farq qilishi, hamda ob-havo sharoitlarining qiyinchiliklari ham yuk tashish jarayonini sekinlashtiruvchi omillardir. Biroq, raqamlashtirish va zamonaviy transport-kelishuvlarni joriy etish orqali ushbu to'siqlarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Masalan, ko'p rejimli logistika markazlarining tashkil etilishi va transport boshqaruvining avtomatlashtirilishi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda (World Bank, 2020). Kelgusida bu yo'nalishlar bo'yicha investitsiyalarni yanada oshirish, huquqiy va texnik asoslarni mustahkamlash loyihaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Muhokama. O'rta koridor loyihasi transport-logistika sohasida mintaqaviy hamkorlikning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, u davlatlararo o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda muhim omilga aylangan. Koridorning samarali ishlashi uchun mamlakatlar o'rtasida transport infratuzilmasi va bojxona tartiblarini uyg'unlashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, shuningdek, infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun qo'yilayotgan investitsiyalar o'z samarasini

bermoqda. O'rta koridor an'anaviy transport yo'llaridan, jumladan Rossiya va Eron orqali o'tadigan yo'llardan farqli ravishda, siyosiy beqarorlik va sanksiyalar xavfi kamroq bo'lgan muqobil yo'l sifatida ko'riladi. Bu esa yuk tashish vaqtini qisqartirish bilan birga, tranzit jarayonini yanada barqaror va ishonchli qiladi. Shu bilan birga, loyiha muvaffaqiyatining asosiy omillari sifatida yuk hajmini barqaror oshirish, transport va logistika jarayonlaridagi operatsion to'siqlarni kamaytirish, bojxona tartiblarining yanada soddalashtirilishi va muvofiqlashtirilishini ko'rsatish mumkin. Biroq, hali ko'plab muammolar saqlanib qolmoqda. Mintaqadagi siyosiy beqarorlik, transport va logistika standartlarining farqliligi, shuningdek, ba'zi infratuzilma obyektlarining eskirishi va texnik jihatdan rivojlanmaganligi — bu kabi omillar yo'lining to'liq salohiyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, bojxona tartiblaridagi kechikishlar va ayrim davlatlar o'rtasidagi hamkorlikdagi muvofiqlik yetishmasligi tranzit jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shuning uchun, O'rta koridor loyihasini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun transport-logistika sohasidagi siyosatni kengroq iqtisodiy strategiyalar va tashqi siyosat bilan integratsiyalash zarur. Mintaqaviy integratsiya, siyosiy irodani kuchaytirish va birgalikdagi investitsiya loyihalarini rivojlantirish orqali hamkorlik yanada mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida, nafaqat transport samaradorligini oshiradi, balki mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish mintaqaviy transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Ko'p rejimli logistika markazlarining rivojlanishi va bojxona jarayonlarining avtomatlashtirilishi tranzit vaqtini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'rta koridor loyihasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, mintaqaviy transport-logistika hamkorligini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajakda loyiha imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun mintaqaviy davlatlar o'rtasida yanada kuchli siyosiy iroda, hamkorlik va integratsiya talab etiladi.

Xulosa. O'rta koridor loyihasi Yevroosiyo mintaqasida yangi transport-logistika hamkorligini rivojlantirish va mustahkamlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu loyiha nafaqat mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga, balki global savdo yo'llarini diversifikatsiya qilish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi. O'rta koridor, an'anaviy tranzit yo'llariga nisbatan siyosiy barqarorlik va tranzit

jarayonining samaradorligini oshirish orqali mintaqadagi iqtisodiy va geosiyosiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Garchi loyiha amalga oshirilish jarayonida infratuzilmadagi ayrim kamchiliklar, bojxona tartiblaridagi murakkabliklar va mintaqaviy siyosiy noaniqliklar kabi muammolar mavjud bo'lsa-da, kelajakdagi investitsiyalar va xalqaro hamkorlikning kengayishi ushbu to'siqlarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Loyiha doirasida amalga oshirilayotgan jamoat-xususiy sheriklik loyihalari, transport standartlarini uyg'unlashtirish va raqamlashtirish sohasidagi yangiliklar koridorning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Siyosatchilar va mintaqaviy liderlar raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, infratuzilmani zamonaviylashtirish va transport-logistika tizimlarini ko'p tomonlama xalqaro kelishuvlar asosida rivojlantirishga katta e'tibor qaratishlari lozim. Ayniqsa, bojxona tartiblarining soddalashtirilishi, raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi va logistika markazlarining kengaytirilishi mintaqaviy tranzit samaradorligini oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Shu bois, O'rta koridor global ta'minot zanjirida o'ziga xos o'rin tutishga, Xitoy va Yevropa o'rtasidagi yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynashga qodir. Kelajakda loyiha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishi kutilmoqda. Natijada, O'rta koridor nafaqat transport-logistika sohasidagi muhim tashabbus, balki Yevroosiyo mintaqasining siyosiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan global hamkorlik platformasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asian Development Bank (ADB). (2021). *Markaziy Osiyo va Kavkazdagi transport aloqalari va savdo qulayliklari*. Manila: ADB nashriyoti.
2. Eurasian Economic Commission. (2022). *Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqida transport va logistika integratsiyasi bo'yicha yillik hisobot*. Moskva: EIK matbuoti.
3. Qozog'iston Transport Vazirligi. (2023). *O'rta koridor rivojlanish strategiyasi 2021–2030*. Nur-Sulton.
4. Trenin, D. (2021). *O'rta koridor geosiyosati: Yangi Yevroosiyo dinamikasi*. Karnegi Moskva markazi.
5. World Bank. (2020). *Trans-Kaspiy Xalqaro Transport Yo'li: Yevroosiyo savdo salohiyatini ochish*. Vashington, D.C.: Jahon banki guruhi.